



Theoretical basis of ideographic dictionary in different system languages

Sevinch SODIQOVA¹

Languages National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2021
Received in revised form
20 March 2021
Accepted 15 April 2021
Available online
20 May 2021

Keywords:

ideological dictionaries,
analog dictionaries,
thematic dictionaries,
illustrative dictionaries.

ABSTRACT

This article deals not only with ideographic thesauruses, but also with thematic, analogical (associative) dictionaries, as well as ideological (ideological), illustrative (pictorial) and ideographic dictionaries are summarized and directly applied in practice.

2181-1415/© 2021 in Science LLC.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Turli tizimli tillarda ideografik lug'at tuzishning nazariy asoslari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ideologik lug'atlar,
analogik lug'atlar,
tematik lug'atlar,
illyustrativ lug'atlar.

Mazkur maqolada o'zaro sintagmatik munosabatdagi uch til, ya'ni ingliz, rus va o'zbek tillari doirasidagi nafaqat ideografik tezauruslar ustida, balki tematik, analogik (assosiativ) lug'atlar, shuningdek, ideologik (g'oyaviy), illyustrativ (rasimli) hamda ideografik o'quv lug'atlari yuzasidan umumlashma izlanishlar olib borilganligi va bevosita amaliy jihatdan natijaviyligi yoritilgan.

¹ Department of English Language and Literature, Faculty of Foreign Languages National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan.

Теоретические основы идеографического словаря на разных системных языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

идеологические словари,
аналоговые словари,
тематические словари,
иллюстративные словари.

В статье рассматриваются не только идеографические тезаурусы, но и тематические, аналогичные (ассоциативные) словари, а также обобщаются и непосредственно применяются на практике идеологические (идеологические), иллюстративные (изобразительные) и идеографические словари.

“Til fikr, his-tuyg’u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiluvchi fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi, kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa, aralashuv va fikrlashuv quroli” sifatida olam va uning ontologiyasini o’zida to’la aks ettiradi.

Ma’lumki, “Til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a’zolari ongida mavjud bo’lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo’lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat kiladigan birliklar hamda ularning o’zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig’indisidir”.

Zero, akademik L.V. Sherba ta’kidlaganidek: “Milliy tillarning lug’atlari haqiqiy xazina, milliy tushunchalar, millat hayoti va aqlining o’ziga xos qomusidir”.

1. Bundan o’zbek tili lug’atlari ham mustasno emas. O’zbek lug’atchiligi tarixini ko’zdan kechiradigan bo’lsak, undagi o’zgarishlarning ijtimoiy hayotdagi tub burilishlarga bog’lik holda kechganligini kuzatishimiz mumkin. Zeroki, milliy lug’atchiligimizning asoschisi, ilk va o’z davrida betakror turkiy lug’at namunasini yaratgan tilshunos olim Mahmud Qoshg’ariy asarida shunday deb yozadi: “Men turklar, turkmanlar, o’g’uzlar, chigillar, yag’molar, qirgizlarning qishloq va shaharlarini ko’p yillar kezib chiqdim, lug’atlarini to’ladim, turli xil so’z xususiyatlarini o’rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim” [1].

Manbalarda lug’atlarning ilk marotaba qanday paydo bo’lganligi haqidagi turli xil qiziqarli tarixiy hikoyalar keltirilar ekan, qadimgi grek va rimliklar matnlarda o’zlari tushunishmagan so’z va birikmalarning ma’nolarini izohlashga urinishgan. Lekin tildagi jamiki so’zlarni bir joyga to’plash mumkinligi, lug’at tuzish ishlari ularning hayoliga kelmagan edi.

O’zbek tilida so’zlar darajalanishi lug’ati, o’zbek tilida butun-qism munosabatli (oartonimik) so’zlar lug’ati, universal o’quv lug’ati, uyadosh so’zlar lug’ati, ideografik lug’at kabi o’quv lug’atlarining bir qancha yangicha turlari ta’lim bo’g’ini uchun tayyorlab berilishi zarur bo’lib turibdi. Shunisi diqqatga sazovorki, hamma zamonlarda ham xalqning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ro’y bergan tub o’zgarishlar eng avvalo lug’atlarda o’z aksini topib boradi. Ilk ideografik lug’atlarning nazariy g’oyalari nemis olimi Yogan Trinning ilmiy tadqiqotlarida o’z aksini topdi. U semantik maydon tushunchasini tilshunoslikka olib kirib, uning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqdi. Keyinchalik “maydon nazariyasi” Porsig va uning izdoshlari tomonidan rivojlantirildi va takomillashtirildi. Tilshunoslikda “semantik maydon” tushunchasini aynan Porsig nomi bilan bog’lashadi.

Leksikani ideografik nuqtai nazardan o'rganishning asosiy maqsadi – bu so'zning turli ma'nolarini bus-butun, yaxlitligicha o'rganish va ularni o'z o'rnida qo'llashni o'rgatishdir. Masalan, talabalar uchun ota, ona, o'g'il, qiz, aka-uka, opa-singil yoki shamol, yomg'ir, bulut, quyosh, oy, yulduz kabi so'zlarni alohida o'rganib (xorijiy tillarni o'rganish nazarda tutiladi), mag'zini chaqishdan ko'ra ushbu so'zlarni ma'lum bir tematik guruhga jamlab, qiyoslab o'rganish ancha qulay va osonroq kechadi. Chunki turli tematik guruhlarga jamlangan so'zlarni (mas., ota-onaga yoki qor-yomg'ir) tartibsiz o'rganish o'quvchini chalg'itishi mumkin va o'zlashtirish jarayonini murakkablashtirishi ehtimoldan xoli emas [2].

Tematik tahlil qilish faqatgina ot so'z turkumiga xos bulgan jarayon. Boshqa so'z turkumlarining tahlili semantik jihatdan o'rganishga asoslanadi. So'zlar tahlilining bu shkala usuli bir-biridan farqlansa – da, ularning o'xshash jihatlari ham bor. Ba'zida ular uyg'unlashib ketishi ham mumkin. Masalan, rang va maza-ta'mni bildiruvchi sifatlar (oq-qora; achchiq-nordon; shirin-sho'r), psixologik xususiyatlar (yovuz, rahmdil, badjahl, xushmuomala). Bu so'zlar bir tomondan antonimik juftliklar hosil qilsa (leksik – semantik guruh), ikkinchi tomondan ma'lum bir tematik guruhlarni tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da, S.I. Ojegov gapiga e'tibor beramiz: "Lug'at – so'zlarning o'zi yoki boshqa tilga tarjimai berilgan alifbo tartibidagi to'plam". Haqiqatan ham, bu o'zi bizning lug'at haqidagi tasavvurimizga to'la mos keladi.

Xo'sh, so'zlar lug'atda qaysi tamoyil asosida joylashmog'i lozim? Til – tizim. U ongimizda ham shu tartibda o'z aksini topgan. Shu yerda mashhur olim N.V. Krushevskiyning so'zlarini yodga olamiz: "Hech qachon tilning asosiy xususiyatini unutmaslik lozim. So'z – narsaning belgisi. So'z va narsa haqidagi tasavvur assosiasiya haqidagi qonun asosida juftlik hosil qilgan. Shunday ekan, so'zlar bizning ongimizda ham o'zi anglatadigan jismlar guruhi kirishi kerak".

Bizningcha, V.I. Dalning ta'nali fikrida jon bor. Alifbo tartibidagi lug'atlarga qarama-qarshi tartibli, ya'ni so'zlarning ma'noviy yaqinligi asosida birlashish tamoyili ideografik lug'atlartuzilishiga olib keladi [3].

3. O'quv tematik lug'ati. Leksikografiya tarixida ingliz, fransuz, nemis, ispan tillari materialiy asosida tuzilgan lug'atlar talaygina.

Yevropada ideografik lug'atlarga qiziqish uyg'otgan, "Ingliz so'zlari va iboralari tezaurusi" ("Teuzarus angliyskix slov i virajeniy") muallifi L.M. Roje o'z lug'ati so'z boshida shunday yozadi: "Biz aytmokchi bo'lgan fikrimizni qanchalik aniq tasavvur qilmaylik, ba'zan biz shunday bir vaziyatga tushib qolamizki, bizga so'z yetishmay qoladi. O'z fikrimizni aniq ifodalash uchun bitta so'z o'rniga bir necha ijobiy va salbiy, kuchli va kuchsiz, ba'zan esa keraksiz so'zlarni ishlatib yuboramiz. Bu lug'atning eng muhim xususiyati shundaki, bir fikrning barcha qirralarini ochib beruvchi so'z va iboralarning boy to'dasini tortiq qiladi". Rojening tezaurusi ingliz madaniyatining muhim bir bo'lagi. U matn tuzuvchi yoki tahrirlovchi har bir kishining – o'quvchi, talaba, jurnalist, yozuvchi va keng ommaning – yaqin yordamchisi [4].

Yana bir ingliz ideografik lug'at muallifi Dj. Roudel lug'ati quyidagicha tuzilgan. Lug'atdagi har bir maqola bosh so'z va bu so'z bilan birikishi mumkin bo'lgan so'zlar qatoridan tashkil topgan. Otlar oldida faqat sifat va fe'llar berilgan. Fe'l va sifatlar oldida esa ravishlar keltirilgan. Nemis tilidagi ideografik lug'atlar orasida nisbatan G.Bekker tahriri ostidagi stilistik lug'at qiziqarli sanaladi. Lug'at qurilishi juda oddiy. Unda 5 ta bosqich bor: 1) Stidvord – bosh so'z vauning grammatik ta'rifi; 2) Sinn – so'z o'zi;

3) Vord – soʻz yasaliş uyasi; 4) Satz – soʻzning grammatik alokasi (M.: agar bosh soʻz ot boʻlsa: Fat – bosh soʻz predikativ aloqada boʻla oladigan feʼllar); 5) Bild – bosh soʻz qaysi frazeologizmida asosiy maʼnoli soʻz boʻla oladi. Yu. Lakruaning maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan ideografik lugʻatida boʻlsa, har bir otdan soʻng ular boshqaradigan feʼllar, keyin predikativ aloqada boʻlaoladigan feʼllar va shu soʻzning aniqlovchisi (sifat) berilgan. A. Roym lugʻati tuzilishi yuqoridagilardan farqli. Har bir soʻz nemis tiliga tarjima qilinadi. Soʻzning sinonim va antonimlari sanab oʻtiladi. Keyin frazeologik birikmalar, maqollar, yasama soʻzlar keltiriladi. Ot soʻz turkumining quyidagi aloqalari beriladi: a) nisbatan koʻp qoʻllanuvchi sifatlar; b) ot bilan predikativ birikma xosil qiluvchi feʼllar; v) ot orqali boshqariluvchi feʼllar; Feʼl soʻz turkumi esa: a) feʼl bilan qoʻllanuvchi ravishlar; b) feʼlga bogʻlanuvchi otlar sanab oʻtiladi. Yuqoridagi qiyosdan tematik va ideografik lugʻatlar orasida quyidagi farqlar mavjudligini sezdik: – tematik lugʻatlar mavzuviy guruhlar asosida tarkib topgan boʻlib, til leksikasi mana shu guruhlar boʻyicha tasnif etiladi, shu guruhlarga birlashadi. Ideografik (tezaus) lugʻatda esa maʼlum bir soʻz (tushuncha)ning vazifadoshlari, maʼnodoshlari, antopimlari, predikativ aloqa hosil kiluvchi (feʼl) soʻzlari bir guruhga birlashadi.

Demak, hozirda oʻzbek tilshunosligida keng qamrovli olib borilayotgan tizimli tadqiqotlar natijasida ideografik lugʻatlar yaratish uchun oʻziga xos zamin paydo boʻldi. Bu jarayonni quyidagilar bilan izoh qilish mumkin[5]:

- Mustaqillik tufayli yurtdoshlarimizning maʼnaviy dunyosida tub oʻzgarishlar sodir boʻlmokda, olamning cheksizligi, son-sanoksiz unsurlardan tashkilotganligi haqidagi dunyoqarash shakllanishi kuchayib, olamni bilishda induktiv bilish usuli bilan birga dsduktiv metodning afzalligi hakidagi fikr-mulohazalar tobora qatʼiylashib bormoqda;

- ilm-fan va texnikaning nihoyat darajada rivojlanib ketishi va barcha soxalarning komp'yuterlashuvi natijasida oʻzbek tilidagi soʻzlarga avtomatik ishlov berish, ularni boshqa tillarga sinxron tarjima kilish, qoʻllanish chastotalarini aniqlash maqsadlari yuzaga kelmoqda;

- mamlakatimizda uzluksiz taʼlim tizimining joriy kilinishi, “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning talablaridan kelib chiqqan holda raqobatbardosh, yetuk shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun faqat yodlash, esda saqlab qolishga emas, balki fikrlashga, mulohaza qilishga, xulosalar chiqarishga yordam beradigan zamonaviy lugʻatlar yaratish lozimligi ayon boʻlmokda;

- hayotimizda yangi iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi natijasida bozorning boshqa turlari qatori intellektual bozor shakllanmoqda. Oʻzbek tilida yaratilajak ideografik (tezaus) lugʻatlar esa bunday bozordagi eng sertalab mahsulotlardan boʻlishi tabiiy.

Oʻzbek tili lugʻatshunosligi haqida gap ketganda, albatta, professor A. Sobirovning ilmiy izlanishlari va ularning salmoqli natijasi toʻgʻrisida fikr yuritish lozim. Xususan, u oʻzining “Oʻzbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish” nomli dissertasiya ishida semantik maydon nazariyasi, makro-, medio- va mikroqurilmalar, olamning muayyan semantik maydonlarga boʻlinishi, oʻzbek tilining leksik sathini maydon nazariyasi orqali sistemali tahlil etish, shuningdek, oʻzbek tilida inson va unga bogʻliq boʻlgan semantik maydonlar tahliliga keng toʻxtaladi. Jumladan, inson bilan bogʻliq 30 ta semantik maydon, inson va jamiyat oʻrtasidagi aloqalarni koʻrsatuvchi 77 ta, inson va olam oʻrtasidagi esa 24 ta mikromaydonlarga ajratib, ularni tadqiq etadi va shu tariqa tilning sistemalar sistemasidan iborat murakkab qurilma ekanini isbotlab beradi [6].

Olimning ta'kidlashicha, "har bir milliy tilda leksemlar muayyan qonun-qoidalar asosida bir yerga jamlanib, to'dalanib boradi. Tilning o'ziga xos tarixiy taraqqiyoti jarayonida mazkur leksik-semantik guruhlar sifat va miqdor jihatidan tinmay o'zgarib turadi". Aytish joizki, o'zbek tili leksikasining har bir sohasida yuqoridagi kabi tahlillarni o'tkazish mumkin va A. Sobirov dissertatsiya ishi ham aynan ana shu jihatdan alohida ahamiyatga molikdir [7].

Albatta, o'zbek tilida ideografik lug'atni yaratish tajribasi mavjud bo'lsa-da, ushbu lug'atlarni mukammal deb aytish qiyin. Shuning uchun yuqorida aytilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kun kishisi uchun nihoyatda zarur bo'lgan ideografik lug'atni mukammal qilib yaratish o'zbek leksikografiyasi oldida turgan kechiktirib bo'lmas vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: UzME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 105.
2. Ne'matov X. Rasulov R. O'zbek tili system leksikologiyasi asoslari. Toshkent: "O'qituvchi", 1995. – B. 72.
3. Щерба Л.В. О словарях живого литературного языка. // Современная русская лексикология. М.: "Наука". 1966. – С. 74–75.
4. Ne'matov X. So'z va uning til va nutqdagi o'rni. // O'zbek tili va adabiyoti. 1988. – 6-son, – B. 23–27.
5. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – М.: Высшая школа, 1990 – С. 154–155.
6. Ne'matov X, Bozorov O. Til va nutq. T.: "O'qituvchi", 1993. – B. 3.
7. A. Sobirov "O'zbek tilining leksik sathini Sistema sifatida tadqiq etish" dissertatsiya ishi, Toshkent – 2005.